


Yozuvchi ijodida nafaqat bolalar adabiyoti, balki kattalar adabiyotiga mansub ijod namunalarini ham uchratish mumkin. "Musobaqadoshlar", "Odamning qadri", "O'tlar tutashganda", "Onaizor", "Aziz odam", "Shoshilinch telegrammalar" kabi hikoyalari, "Suv gadosi", "Ko'kterak shabadasi" kabi qissalari shular jumlasidandir.

Adibning o'nlab asarlari rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, ukrain, belarus, nemis, fransuz tillariga o'girilgan.

Adib tavalludining 50 yilligi hamda 60 yilligi munosabati bilan ikki hamda besh jildlik "Tanlangan asarlari" chop etilgan bo'lib, ushbu besh jildlik "Tanlangan asarlar"i uchun H.Nazir Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

1984-yilda Hakim Nazir "O'zbekiston Xalq yozuvchisi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Shu yili adib Xans Kristian Andersen nomidagi Xalqaro faxriy diplom bilan ham mukofotlangan. Adibning ijodiy faoliyatidagi erishgan yutuqlaridan yana biri bu 2000-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlanganligidir. Bolalarning sevimli yozuvchisi-Hakim Nazir 2008-yil 15-may kuni vafot etgan.



Ushbu qo'llanmani tayyorlashda "Ziyo istagan qalblar uchun!" (n.ziyouz.com) saytidagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Manzil: To'rtko'l tumani Toshkent mahallasi
sayt: turtkultumanakm.uz




O'zbekiston Xalq
yozuvchisi, bolalar adibi
Hakim Nazir tavalludining
110 yilligiga
(1915-2008)

ESDALIK

Adibning ijodiy faoliyati.

H.Nazirning adabiy faoliyati 30-yillarning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, dastlabki mashq hikoyalari 1934-yilda gazeta va jurnallarda bosilgan. H.Nazirning kattalar va bolalar uchun 50dan ortiq kitoblari chop etilgan bo'lib, bu asarlarda odob-axloq, odamiylik, do'stlik va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik haqida bahs boradi. H.Nazirning "Pionerlar bog'i", "Besh baho", "Cho'l havosi", "Yaxshi nom", "Meni taniysizmi?", "Bolajonlarim", "Ali bilan Sher", "Bir og'iz so'z", "Baqaloq va chaqaloq" kabi hikoyalar to'plamlari, "Ko'korol chiroqlari", "Yonar daryo", "Kenjatoy", "Tohir-Zuhra qissasi" nomli qissalari hamda "Dadamni topib beringlar" kabi asarlari kitobxonda mehnatga, oilaga, hayotga bo'lgan munosabatlarni shakllantiradi.

Adibning "Lochin qanotlari" nomli romani o'zbek bolalar va o'smirlar adabiyotida kam yoritilib kelingan urush mavzusi ochib berilgan. H.Nazir dramaturg sifatida "Chiranma g'oz-hunaring oz" pesasi bilan o'zbek bolalar dramaturgiyasi rivojiga o'z hissasini qo'shgan.



O'zbekiston Xalq yozuvchisi Hakim Nazir hayoti

Bolalar yozuvchisi - Hakim Nazir 1915-yil 15-oktabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Dastlabki ta'limni uyida onasidan olgan H.Nazir mehnat faoliyatini 15 yoshidan oyoq-kiyim fabrikasida boshlagan hamda ishlab turib, kechki ishchi-yoshlar maktabida o'qishni davom ettirgan.

1941-yilda Toshkent Davlat pedagogika institutining kechki bo'limini tugatgan. 1954-1956-yillarda esa Moskvada Oliy adabiyot kursini bitirgan. 1993-yildan H.Nazir "Lenin uchquni" gazetasida ishlay boshlagan. Shundan keyin 50 yil davomida uzluksiz bolalar matbuotida, respublika radioeshittirish Davlat qo'mitasida, badiiy adabiyot nashriyotida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy xodim, bo'lim mudiri, mas'ul kotib, bosh muharrir, adabiy maslahatchi vazifalarida xizmat ko'rsatgan.